

## TARIX FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METOD HAMDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Aniyazova Feruza Farhodovna**

UrDU huzuridagi fizika, matematika, informatika fanlariga ixtisoslashgan  
maktabning tarix fani o‘qituvchisi

**Abdolniyazova Nilufar Davronbekovna**

Xorazm viloyati Urganch shahar 29-son maktabning  
tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta’lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ilg‘or tajribalar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktab, o‘quvchi, tarix, qiziqarli o‘yinli, mavzuga zamin, xulosa-daraxt hosilida.

Bugungi kunda zamonaviy ta’limni tashkil etishda rolli o‘yinlar va interfaol usullardan samarali foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘quvchilarda muayyan faoliyat yuzasidan egallagan nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta’limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli o‘yinlar, interfaol usullar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida qo‘llash nihoyatda qulay bo‘lgan bir qator o‘yinli texnologiyalar yaratilgan.

O‘yinli texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlash, o‘quvchilarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek, bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqt oraliqini qisqartirish, ta’limni jadallashtirishga yordam beradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda tarix darslarida qo‘llaniladigan o‘yinlar hamda interfaol usullardan bir nechtasini ko‘rib chiqamiz.

“Mavzuga zamin” usuli. Mazkur usuldan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni o‘tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo‘yicha o‘quvchilarni darsga tayyorlash hisoblanadi. Yaxshi dars o‘tilishi, o‘quvchilarning yaxshi o‘zlashtira olishi, eng birinchi navbatda, o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilishi, o‘tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab, ularga o‘tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha o‘quvchilarni o‘tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog‘liq. Bu usul ko‘proq o‘quvchilarni darsga tayyorlab olishi, o‘tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlashga zamin hozirlash uchun ishlatiladi. Guruhlar belgilanadi. O‘quvchilar guruhlariga 5-7 kishidan bo‘linishlari kerak. Guruhlarga bo‘lish chog‘ida guruhlarining kuchlari teng bo‘lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 2-3 ta yaxshi o‘zlashtira oladigan o‘quvchilarni va unga yaxshi o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilarni joylashtirib bo‘lish kerak. Har bir guruh o‘ziga nom qo‘yish kerak. Buning uchun o‘qituvchi guruhlariga quyidagicha murojaat qiladi: „Siz guruhga nom qo‘yayotganda quyidagilarga e‘tibor bering?“. Siz guruhingizga o‘tilgan mavzuning ichidan biror-bir voqeani keltirib chiqaruvchi so‘zlar yoki o‘tilgan mavzuning asosiy mazmunlaridan birini tashkil etuvchi so‘zlar orqali nom qo‘ying. Guruhingiz bilan bu nomni nima uchun qo‘yganligingizni aytib berish uchun tayyorlaning (1-minut vaqt beriladi). Har bir guruh nom qo‘yib bo‘lgandan so‘ng, u guruhlardan bu nomni nima uchun qo‘yganligi so‘ralishi kerak. Bu ham o‘quvchilarning tarixiy atamalarni qay darajada egallaganliklarini namoyon qiladi. Yuqoridagilarni o‘tkazib bo‘lgandan so‘ng, o‘quvchilar o‘tilgan mavzu haqida qisqacha tushuncha hosil qilib, o‘quvchilar mavzuni mustahkamlash uchun zamin hozirlanadi. Keyin o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun shu guruhlariga savollar, topshiriqlar berish mumkin.

“Xulosa-daraxt hosilida” usuli Maqsad: “Xulosa-daraxt hosilida”—Mavzuning asosiy mazmunini keltirib chiqaruvchi savollarga javob berish natijasida tahlil qilinib, yakuniy xulosani keltirib chiqaruvchi o‘yinli usuldir. Bu o‘yinli usul orqali o‘quvchi mavzuning asosiy xulosasini chiqarishni va bir-biri bilan fikr almashinib, voqealar bayonini yoritib borishni ta‘minlaydi Qo‘llash bosqichlari bo‘yicha tavsiyalar:

1. Ko‘proq o‘tilgan mavzuni mustahkamlash chog‘ida ishlatilishi kerak.

2. Bu usul 5-9-sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. „Xulosa-daraxt hosilida” usulini o‘tkazish uchun birinchi navbatda plakatga yoki sinf taxtasiga daraxt chiziladi va daraxt novdalariga mavzuning asosiy mazmunini tashkil etuvchi sodda savollar hamda o‘quvchilarni fikrlashga chorlaydigan muammoli savollar yozib qo‘yiladi. Sodda savollar yozilganligining asosiy sababi sizga ma’lumki, faqat agar muammoli savollar yozilsa a’lo baholarga o‘qiydigan o‘quvchilar javob berishi mumkin, lekin past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar javob bera olmasligi mumkin. Shuning uchun ham sodda savollar sinfdagi barcha o‘quvchilar ishtirokini ta’minlaydi. Bu esa o‘quvchilar o‘rtasida raqobat kelitirib chiqaradi.

4. Daraxt novdalariga yuqoridagi tartibda savollar yozib qo‘yilgandan so‘ng, o‘quvchilarning javoblari qisqartirilib, daraxtning „Javoblar” qismiga yozib boriladi. Javoblar to‘g‘ri yoki savoldan ozroq chetlashgan, noto‘g‘ri bo‘lsa ham daraxtning „Javoblar” qismiga yozib boriladi. Savol tug‘ilishi mumkin nima uchun noto‘g‘ri yoki mavzudan ozroq chetlashgan javoblar ham yozib boriladi. Buning asosiy sababi tahlil jarayonida o‘quvchining xatosini o‘quvchilar to‘g‘irlashadi va bu jarayon esa baxs-munozarani keltirib chiqaradi.

5. Daraxtning „Javoblar” qismidagi javoblar o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinib eng to‘g‘ri va eng maqbul xulosa javobi daraxtning „Javoblar” qismidan chiqqan „Javoblar xulosasi” qismiga yoziladi. Shu tartibda hamma savollarga javob berib bo‘lgunga qadar davom etadi. 6. „Javoblar xulosasi” qismidagi javoblarning xulosasi o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinib, eng so‘nggi mavzuning asosiy xulosasi daraxtning „Yakuniy mavzuning asosiy xulosasi” qismiga yoziladi. Ko‘rinib turibdiki mavzuning asosiy xulosasi javoblarning bosqichma-bosqich tahlili jarayonida kelib chiqayapti.

Zakovat o‘yini – bu o‘yinni o‘tkazishda dastlab sinfxonani o‘yinga moslashtirish lozim. O‘yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o‘quvchilar o‘yinda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladilar. O‘yin ishtirokchilari 6-8 kishidan iborat bo‘ladi. Qolgan o‘quvchilar esa o‘yinni tomoshabin sifatida kuzatib turishadi. O‘yin uchun mo‘ljallangan savollar konvertga joylashtirib o‘qib

eshittiriladi. Guruh sardori savolni o‘qib o‘qituvchiga beradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o‘yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o‘yinni asosan yuqori sinfda o‘tkazish tavsiya etiladi. Zakovat o‘yinlarida asosan, o‘rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

Rol ijro etish o‘yinlari – unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, o‘z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi. Bu o‘yin orqali tarix darslarida tarixiy shaxslarni shaxsiyatini mukammal bilishda foydalaniladi. Masalan, To‘maris, Shiroq, Sitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddijn Kubro, Amir Temur, Xusayn Bayqoro, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Shayboniyxon, Amir Olimxon, Nodira, Xudoyorxon, Muhammad Rahimxon II va Dukchi Eshon kabi shaxslarbo‘lishi mumkin. Yuqoridagi didaktik o‘yinlar va interfaol usullar orqali o‘quvchilarning dars jarayoniga qiziqishi ortadi hamda o‘quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Og‘ayev S. Yangi pedagogik texnologiyalar – hayotiy ehtiyoj. Xalq ta’limi jurnali, 2001, 3-soni.
2. Pedagogika. Pedagogicheskie teorii sistemi, texnologii. Pod.red. S.A.Smironova. – M.: Akademiya, 2004.
3. Aqchayev F.Sh. Tarix fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Jizzax, 2014.
4. Abdujabbarova M.A. Tarix darslarida qiziqarli o‘yinli usullardan foydalanish. “Science and education” scientific journal. September 2020/Volume 1 Issue 6